

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 8 360,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-martini bilan taqqoslaganda 3,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,1 % ga yetdi.

*Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

**2021-2022- yillar uchun YAHM o'sish sur'ati va deflyator indeksi dinamikasi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

		Mlrd. so‘m		<i>O‘sish sur’atlari, o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2021- yil	2021- yil	
	<b>I. YAHM</b>	<b>7 291,5</b>	<b>8 360,5</b>	<b>103,2</b>

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	6 857,2	7 812,6	103,2
---	--	---------	---------	-------



Mahsulotlarga sof soliqlar

434,3

547,9

104,1

	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>6 857,2</b>	<b>7 812,6</b>	<b>103,2</b>
--	---	----------------	----------------	--------------



**Qishloq, o‘rmon va baliqchilikchilik xo‘jaligi**

**1 427,8**

**1 640,0**

**101,0**

	<b>Sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)</b>	<b>2 280,6</b>	<b>2 454,3</b>	<b>102,3</b>
--	---	----------------	----------------	--------------



sanoat

1 721,3

1 833,6

104,7

	qurilish	559,3	620,7	94,6
---	----------	-------	-------	------

**Xizmatlar**

**3 148,8**

**3 718,3**

**104,8**

	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	569,8	670,3	105,7
---	--	-------	-------	-------



tashish va saqlash, axborot va aloqa


411,5

490,8

114,2

	boshqa xizmat tarmoqlari	2 167,5	2 557,2	102,8
---	--------------------------	---------	---------	-------


**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 101,0 %, (YAHM tarkibidagi ulushi - 21,0 %), sanoat - 104,7 % (23,5 %), qurilish - 94,6 % (7,9 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 105,7 % (8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa - 114,2 % (6,3 %) va boshqa xizmat tarmoqlari – 102,8 % (32,7 %) ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 447,6 ming so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga 101,6 %ni tashkil etdi.

**Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**



**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi**

*(Yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan % da)*



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 93,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,6 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 21,0 % ni, sanoat tarmog'i 23,5 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 47,6 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**


		<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>
	<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,0	93,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6,0	6,6
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20,8	21,0
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>33,3</b>	<b>31,4</b>
	sanoat	25,1	23,5
	qurilish	8,2	7,9
<b>Xizmatlar</b>		<b>45,9</b>	<b>47,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,3	8,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	6,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	31,6	32,7

**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi**  
*(jamiga nisbatan % da)*

**2021- yil**



**2022- yil**




Yuqorida keltirilgan diagrammada sanoat sohasining YAHM tarkibidagi ulushi 2021- yildagi 25,1 % dan 2022- yilda 23,5 % ga va qurilish ulushi 2021- yilda 8,2 % dan 2022-yilda 7,9 %ga kamayganligini ko'rish mumkin. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligini ulushi 20,8 % dan 2022- yilda 21,0 % ga oshdi.

Xizmatlar sohasining YAHM tarkibidagi ulushi esa 45,9 % dan 47,6 % ga ko‘paydi. Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 8,3 % ni (2021-yil yanvar-mart – 8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,0 %ni (6,3 %), boshqa xizmat tarmoqlari – 31,6 %ni (32,7 %) tashkil etdi.

YAHM ishlab chiqarish umumiyligi hajmining 57,4 %i kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2021- yil yanvar-mart oylarida 56,9 %ni tashkil qilgan.

**2022- yil yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)




2022- yil yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2021- yil yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 113,7 %, qurilishda – 117,3 % va xizmatlarda – 112,6 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat

### turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



### 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMdagi kichik biznesning ulushi

(YAQQga nisbatan %da)

2021- yil

56,9 %

2022- yil

57,4 %

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 57,4 % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-martida – 56,9 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'payishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududdida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga (YAHM)** muayyan davrda joriy narxlardagi YAHM hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ)** ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** - tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** - davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**YAHM fizik hajm indeksi (o‘sish sur’ati)** doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAHMni (real YAHM), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri YAHMga nisbati orqali hisoblanadi.

**YAHM deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (joriy narxlardagi hisobot davri YAHM) real YAHMga nisbati orqali hisoblanadi.